



ABDURAUF FITRATNING “HIND IXTILOLCHILARI” VA “CHIN SEVISH”
DRAMALARIDA VATANPARVARLIK TUYG’USI

Xamroyeva Shaxrizoda Shavkat qizi

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
Jurnalistika ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

Tel : [\(93\) 051-93-41](tel:930519341)

e-mail: shaxrizodaaa2700@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning "Chin sevish va Hind ixtilolchilari" asarlarining tahlili, undagi yurt sevgisi mavzusi yoritilgan, mustamlakachilik zulmi, jadidchilik harakati g'oyalari ilgari surilgan.

Abstract. In this article, the analysis of Abdurauf Fitrat's works "Real love and Indian revolutionaries", the topic of love of the country is highlighted in it, the ideas of colonial oppression and the Jadidist movement are put forward.

Аннотация. данной статье проводится анализ произведений Абдурауфа Фитрата « Настоящий любовь и индийские революционеры», в ней освещается тема любви к стране, выдвигаются идеи колониального угнетения и джадидистского движения.

Kalit soʻzlar: Jadidchilik, vatanparvarlik, mustamlakachilik, vatanni sevish, drama.

Key words: Jadidism, patriotism, colonialism, patriotism, drama

Ключевые слова: Джадидизм, патриотизм, колониализм, патриотизм, драма

Ma’rifat tarqatish, atrofidagi millatdoshlarini ozodlikka chorlash orqali qalam tebratish, jadid adabiyotining tub mohiyatidir. Professor B.Qosimov ta’kidlaganidek, “10-yillar adabiyoti unchalik ham yalang’och va quruq da’vatlardan iborat emas ekan”[1]. Ushbu davr siyosiy maydoni va adabiyot gulshani vakillaridan biri Abdurauf Fitratdir. Buxoro farzandi Fitrat ilmiy risolalar, qator ilmiy pyesalar, publitsistik maqolalari bilan xalq qalbiga ezgulik, yangilik, ma’rifat urug’ini socha oldi. Shunday asarlari orasidan tahlil sifatida “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari”ni tanlagan ekanmiz, eng birinchi urg’u beradigan tushunchamiz har ikki holatda ham voqealar Hindistonda bo’lib o’tadi. Dramadagi bosh g’oya mustamlaka tuzumga nafrat, vatanga muhabbat davr jamiyatidagi ahvol, bir soʻz bilan aytganda vatanparvarlik. Hindiston hududini tanlab olishning ham o’ziga xos sababi mavjud. Shulardan biri davr siyosati- ochiqdan ochiq rus mustabid tuzumiga qarshi qalam tebratish “arining inini kovlash”dek gap edi. Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlari uchun. Bu yo’lda esa Hindiston himoya vositasi edi. Ikkinchidan, Fitrat haj safaridan qaytayotganda hamyonini o’g’irlatib, uzoq vaqt Hindistonda qolib ketadi va u yerdagi siyosiy tuzumni juda yaxshi o’rganadi. Yana bir sabab esa kitobxonni jalb qilishning ommaviy usullaridan biri, ya’ni o’zga millat vakillarini bosh qahramon darajasiga ko’tarib tasvirlashdir.



“Chin sevish”da “Ulug’ hind ulusi o’z yurtini qutqarmoqchi ekan, barchasi birdan to’lqin qilsin: yiqilsin, yiqsin, o’ldirsin, yoqilsin...Go’zal yurtimiz inglizlar qo’linda qoladigan bo’lsa, to’rt yuz million ulusimizning jonsiz va qonli gavdalari bilan qolsin...”[2], “Hind ixtilolchilari” da esa “Endi hammamiz birga Hindiston uchun tirishamiz. Yirtg’uchilardan elimizni qutqaramiz. Yashasun Hindiston, yashasun istiqbol!” jumalari asarning eng kulminatsion nuqtasi bo’lib qahramonlar qalbidan otilib chiqqan har bir hayqiriqdan yovga nafrat sezilib turadi [3] Bir asarda Nuriddinxon va Zulayho, ikkinchisida bo’lsa Rahimbaxsh hamda Dilnavoz qo’sh oshiq va ma’shuqalar obrazi orqali ham ayol zotiga cheksiz hurmat va sadoqatni, ham yurt ishqida yonib kuyuvchi mardlar taqdirini ko’rsatib beradi. „Hind ixtilolchilari“ dramasida Hindiston to’g’risida mubohasalar, ingliz yuzboshisining hirs orqasida bosh qahramonlarning qamoqqa olinishlari, qutilishlari, yashirin qo’mitada birga ishlashlari, qo’lga tushishlari, oqibatda ingliz yuzboshisini o’ldirib, butkul qutilishlari orqali davr siyosiy muhiti ochib berilgan. Asardagi meni ta’sirlantirgan o’rinlardan biri Rahimbaxsh bilan Dilnavozning suhbatlari ustiga Lolahardayolning kelib qolib, «shu ketmon bilan anglizning boshini ezmasak, hech kim tashqaridan kelib bizni qutqarmas» kabi mardonavor jaydari so’zni so’zlagani bo’ldi. E’tibor berib qaralsa, mustamlaka zulmi ostida bo’lgan xalqimiz, asosan, agrar sohada mehnat qiladi. Paxtachilik, qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishda qo’lda ketmon, o’roq tutib umr kechirgan. Besh pardalik dramaning 2-sahnasida Mulla obrazi qo’shiladi. „Asardagi eng murakkab tip“ deb baholangan bu qahramon, dastavval, ixtilolchilar bilan bir maqsadda bo’ladi. Shu bilan birga Mulla yashirin qo’mitaning faol a’zolaridan ham edi. Ammo bir ingliz kelib, Qur’on va biroz pul evaziga Mullani ixtilolchilarga qarshi turishga chorlaydi, bunga laqqa tushgan Mudarris oxir-oqibat ixtilolchilarni uyidan haydab chiqaradi. Bu vaziyat orqali guvohi bo’lishimiz mumkinki, yurt sotqinlari, xiyonatkorlar o’z ichimizdan chiqib, sotqinlik qilgan, tobelik sari boshlagan. Shunday Fitrat mahorati, qalami kuchi orqali bir parcha asaridan bir qancha xulosalar chiqarish, holatlarga oydinlik kiritish mumkin.

Jumladan, professor S.Mirzayev shunday yozadi : Fitratning ushbu asarlarda tashbehlariga yashiringan ezgu orzusi - o’z ona vatani- O’zbekistonni mustaqil, o’zbek xalqini har qanday zulm va cheklashlardan ozod holda ko’rishni istagan va bu istakni o’ziga xos tarzda majoziy usulda ifodalagan” [4]

Hind xalqining inglizlarga nisbatan nafrati niqobi ostida Chor Rossiyasining Turkistonga mustamlakachilik siyosati katta mahorat bilan tasvir etilgan. “To’rt yuz milyo’nli bir ulug’ ulusning tulki qiliqli o’n ming angliz ma’muriga qul bo’lib turishi miyalarg’a sig’mas bir ishdir. Bu qiziq ishni ko’rgan tarixning dahi bizning inson bo’lg’animizga ishongisi kelmaydir.” Mana guvohi bo’lyapmizki, Fitratning andazalari uncha-muncha o’lchovga mos kelmaydi: o’z yurtining erksizligini, kam sonli bir xalqqa tobeligini har bir inson atalmish zot nomiga isnodligidan kurrayi zamin hayratdadek go’yo. Mustamlaka siyosatning asl mohiyati esa xalqni jaholatda tutish, madaniyati, tarixi, ona tilini yo’qotib, g’ururini o’ldirishdan iborat edi. Bu tayanchlarsiz yurtni tasavvur qilib bo’lmasligini Fitratni qog’oz qoralashga chorlaganiga hech shubha yo’q. Mantiqan olib qaralganda, “Hind ixtilolchilari”ni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



“Chin sevish”ning davomi deyish mumkin. Har ikkalasi zamirida ham vatan ishqiy yotadi, taqdirlar turli bo’lsa-da, ammo maqsad mushtarak, orzu bir edi. Va u amalga oshdi; millionlab qurbonlar evaziga kelgan istiqloq davrida biz yashayapmiz.

Yirik jadidshunos olim Begali Qosimov ta’biri bilan aytganda’ har qanday holda ham xalq bilan birga bo’lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo’yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi. Bir yurtga sodiq bir o’g’lon bo’lish yo’lida katta jasorat ko’rsata oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Qosimov B Milliy uyg’onish – T.Ma’naviyat 2002. – B5
- 2.Abdurauf Fitrat “Chin sevish” 1996-y.
3. Abdurauf Fitrat “Hind ixtilochilari” 1996-y
- 4.Mirzayev S. XXasr o’zbek adabiyoti 2005-y.